

# Ilm va hayot yo'lida: ayol liderlar bilan ochiq muloqot

Ayol-qizlarni ilm-fan, shaxsiy rivoj va yetakchilik sari ilhomlantirishga qaratilgan maxsus tadbir o'tkazildi. Tadbir doirasida "Olima yo'li" hamda "Ikki yo'l, ikki taqdir" nomli filmlar premyerasi tashkil etildi.

Unda olimlar ayollar, talabalar, OAV vakillari hamda blogerlar ishtirok etishdi. Mazkur tashabbus yosh ayol-qizlar hayoti va karyerasida muhim ahamiyat kasb etadi. Ya'ni ularga o'z imkoniyatlarini anglash, to'g'ri kasb tanlash va shaxsiy rivoj yo'lida ularni faol bo'lishga undash, hayotdagi muhim qarorlarni ongli ravishda qabul qilish madaniyatini shakllantirish ham asosiy maqsadlardan biri sifatida belgilangan.

Premyeradan so'ng tajribali va nufuzli ayol olimlar ishtirokida ochiq muloqot tashkil etildi. Unda turli sohalarda katta tajribaga ega bo'lgan ayol liderlar, jumladan, Toshkent axborot texnologiyalari universiteti professori Dildora Muhamediyeva, O'zRFA vitse-prezidenti Shaxlo Turdiqulova ishtirok etib, o'z bilim va tajribalari bilan o'rtoqlashdilar. Muloqot davomida olimlar muvaffaqiyat sari bosilgan qadamlar va bu yo'llardagi duch kelgan qiyinchiliklari hamda ularni yengib o'tish davomida olgan tajribalari haqida so'zlab berdilar.





Bugungi kunda yoshlarning, ayniqsa, ayol-qizlarning o'z yo'lini topishi, jamiyatda faol o'rin egallashi va o'z salohiyatini to'liq namoyon qilishi dolzarb masala hisoblanadi. Mazkur tadbir aynan shu ehtiyojdan kelib chiqqan holda tashkil etilgan bo'lib, ishtirokchilarga real hayotiy misollar orqali ilhom berishni maqsad qilgan.

Tadbir yakunida olim ayollar yoshlar va OAV vakillarini qiziqtirgan barcha savollarga javob berdilar.